

BIR HIKOYA TAHLILI

Eshquvatova Umida

Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Maqolada XX asrning yetuk yozuvchisi Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi tahlilga tortildi. Hikoya qahramoni Turobjon obrazi orqali davr fojiasi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: fojia, fojia qurboni, obraz, fojia omili, davr fojiasi, boshqorong‘i, xarakter, yirtilgan ko‘ylak.

Mohir hikoyanavis Abdulla Qahhor “Anor” hikoyada o‘tmish fojiasini yangicha talqin bilan ochib bera olgan. Bu haqida adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov ham o‘zining “Abdulla Qahhor mahorati” nomli monografiyasida alohida to‘xtaladi. “Abdulla Qahhorgacha fojia bu o‘lim bilan bog‘liq yoki zo‘ravonlik aks etgan sahnalarda uchraydi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida fojia bu Kumushning o‘limi bilan bog‘liq bo‘lib romantika fojiadan kelib chiqadigan ma‘noni ulug‘laydi. Navoiy asarlarida esa fojia romantikani ulug‘laydi. Qahhor ustozlarining asarlarini o‘rgangan holda u tasvirlagan fojialarda na uni, na buni takror qiladi. Qahhor yaratgan asarlar faqat uning o‘z ijodiy uslubiga mos”.¹ Olimning yuqorida keltirgan firklariga tayanib asarni tahlil qiladigan bo‘lsak, “Anor” hikoyasidagi fojia bu Turobjonning ojizligi, soddaligi va kambag‘aligidir. Hikoyada keltirilgan har bitta detal, obraz, xatti-harakat, tasvir aynan mana shu fojiani ochib berishga harakat qiladi.

Asar boshida Turobjon uyiga hovliqib kirib kelishi va ko‘ylagining yangi behosdan yirtilishi, muhim bir voqeani ifodalasa, uning xotini jo‘xori tuyayotgani va erini ko‘rib yugirib ketish oqibatida jo‘xorining behosdan ag‘anab to‘kilishi, anchadan buyon orziqib kutayotgan narsasiga erishish uchun bu holatga e‘tibor bermasligi voqeani yanada jonli tasvirlashga xizmat qilgan. Negaki ko‘ylak deyarli yangi, bir-ikki yuvilgan xolos, jo‘xori esa ularning bor-yo‘g‘i yeguligi. Ayol keyingi o‘rinlarda aynan mana shu jo‘xorini ko‘ngli tusamasada, uvol bo‘lmasligi uchun yeyishi, bu oilaning zo‘rg‘a qo‘l uchida ro‘zg‘or tebratadigan, o‘sha davr, o‘sha muhit uchun oddiy bir oilalardan ekanligini ko‘rsatadi. Turobjonning ayoli anorga boshqorong‘i, lekin u ayoliga anor olishga puli yo‘qligidan xo‘jayinidan so‘rab asal olib keladi va shundan keyin er-xotin o‘rtasida mojoro boshlanadi. Mana shu jarayonni adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov quydagicha tahlil qiladi. “Yigit boshqorong‘ilikning ma‘nosiga yaxshi tushunmaydi. Uning nazarida

¹ Kўshжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Тошкент.: ШАРҚ НАШРИЁТ – МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ. 2018. 154 Б.

<https://conferencea.org>

boshqorong‘i xotin biron tansiq narsani qumsaydi-yu, ikkinchi bir tansiq narsa uning o‘rnini bosaverishi mumkin deya asal olib keladi”² – degan ma’noda tahlil qiladi. Er- xotin suhbatidan ham anglashiladiki:

“–Havasga anor yeydi deysiz shekili...

Turobjon bilaman nima qilay axir deya kambag‘alligini yashirmagani, xotining ko‘zidagi jiqqa yoshni ko‘rib, kasal o‘rtog‘ini ko‘rishga bilmasdan xom tarvuz oborganida uyatdan o‘sha holatdagidek qizarishi, boshqorong‘i ayolni tushunmaslikdan emas, aksincha birgina anor uchun qo‘li kaltalik qilganligidan, kambag‘allik uning uchun bir fojia bo‘lganligidan, hech bo‘lmaganda ayolini shu asal bilan hursand qilmoqchi bo‘ladi. Shu o‘rinda ayolni ham ayblab bo‘lmaydi.

U boshqorong‘i, anorni farzandi uchun so‘rayabdi, shunday bo‘lsa ham u dod- faryod ko‘tarmaydi, turmush o‘rtog‘iga jim qoladi.

Qahhor ijodini o‘rgangan adabiyotshunoslarimiz yozuvchi hikoyalarida tasvirlagan qahramonlar ruhiyatini bir nechta davrlarga bo‘lganlar. Biz ham ularga tayangan holda Qahhor asarlaridagi qahramonlar ruhiyatini ikki davrga bo‘lib o‘rgandik. Birinchi davrga mansub asarlarda qahramonlarida, norozilikni ochiqcha ifodalash, isyonkorlik kuchlilik qiladi. Masalan, “O‘g‘ri” hikoyasida “kampir ho‘kizi yo‘qolganidan dod- faryod qiladi. Bunga odamlar o‘rganib qolgan chunki kimnidir uyini o‘g‘ri uradi, kimnidir eri uradi”. Ikkinchi davr qahramonlarida esa aksincha isyon o‘rnini “indamaslik vositasi” egallaydi. “Anor” aynan mana shu davrda yaratilgan bo‘lib ayol ruhiyatidagi norozilik “ko‘zlar to‘la yosh”, “yengini tishlab bir nuqtaga qaragancha tik qoldi” , “ er- xotin bir- biriga qarab tik qoldi” , yoki “ ayol ko‘zlari qizargan chakka tomirlari chiqqan holda qaytishi” aynan dod- faryodlar bilan emas, uning holatidagi tasvirlar bilan yanada jonliroq qilib bayon etiladi. Yozuvchi hikoya orqali o‘sha davrdagi zamonning og‘irligini, ishchi kuchining arzonligini, boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi tafovutni hikoya qahramoni Turobjon obrazi yordamida ochib bera olgan. Asarda Turobjon erta sahardan suv tashib, o‘tin yorib, o‘t yoqib bir oyda o‘n sakkiz tanga pul topadi. Ammo mana shu bir oy ishlab topgan pulga ham xotiniga bir oyda bit marotaba anor olib bera olmaydi. Qahhor hikoyada boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi konfliktni va adolatsizlikni ham ko‘rsatishga urinadi. Aynan shu qiyos Turobjon va uning qo‘shnisi Mullajon qozi obrazlarida yaqqol ko‘rinadi. Turobjon va uning ayoli uchun anor topilmaydigan, qimmatbaho, tug‘ilmagan bolani “yer yutkur” deya qarg‘ashga arziydigan yoki Turobjon asal olib kelganiga xotining noroziligidan jahli chiqib “jigarlaring ezilib ketsin” deya ta’na qilishga, yo xotiniga qo‘l ko‘tarishga hattoki, o‘g‘irlik qilishga majbur qiladigan noyob bir narsa bo‘lsa, uning qo‘shnisi Mullajon qozining bog‘idagi anor daraxtida anorlar choynakday, choynakday bo‘lib

² Кўшхонов М. Абдулла Қаххор махорати. – Тошкент.: ШАРҚ НАШРИЁТ – МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ. 2018. 155 Б.

<https://conferencea.org>

osilib yotadi. Yoki mana shu Mullajon qozi to'yida har biri uch miridan bo'lgan yetmish besh so'mga yuzta mushak o'tsa, uning qo'shnisi bir tangaga bitta anor sotib ololmaydi. Aynan mana shu o'rinda, boylar va kambag'allar o'rtasidagi tafovut ifodalangan.

Hikoya davomida Abdulla Qahhorning kam so'zlar, ixcham jumlar orqali katta va teran ma'no ifodalash mahoratiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Jumladan, Turobjon va ayoli farzandli bo'lishni anchadan buyon kutishadi, lekin hech bir joyda bu oshkor aytilmaydi. O'quvchi buni hikoya boshida Turobjon uyiga shoshilib kelishi, jo'xorining to'kilishi yoki ular oila qurganiga uch yil bo'lganidan bilishimiz mumkin. Hikoyada tabiat tasviri ham mohirlik bilan tasvirlangan. Asar voqealari kuz faslida bo'lib o'tadi. Ammo biz asarda kuz so'zini uchratmaymiz. Buni anor kuzda pishishidan bilib olamiz. Osmonning ham aynan yorqin rangda emas qoramtir, kulrang rangda tasvirlanishi hech bir ortiqcha so'zlarsiz muhit va qahramonlar ruhiyatini ifoda etadi.

Yozuvchi

qahramonlar xatti-harakatlariga ham alohida ma'noni yuklaydi. Hikoya ichida kelgan "chiroq pihhilab yonishi", "ship qirs etdi", "kaltakesak chirillaydi", "xira yulduzlarga qaradi", "shamning yonida yolg'iz parvona aylanadi" kabi tasvirlarning o'zi boshdan oyoq mungli va yurakni ezar darajada g'amni ifodalaydi. Ayniqsa, hikoya oxirida keltirilgan quyidagi jumlada: "Qorong'u, uzoq- yaqinda it hurar edi. Ko'cha eshigini ochib u yoqqa bu yoqqa qaradi jimjit. Guzar tarafda faqat bitta chiroq miltillar edi. Samovar yotgan, qaytib uyiga kirdi", odamni yutar darajada jimjitlik keltirilgan. "Turobjon do'ppisini qo'liga oldi va qoqmasdan boshiga kiydi". Quyidagi harakat orqali esa hafsalasi pir bo'lgan inson holati tasvirlangan.

Hikoyada keltirilgan bo'yoqlar tasviri ham ruhiy holatni ifoda eta olgan. Adabiyotshunos Abdurahmon Alimuhammedov "Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir" nomli maqolasida Qahhorning ruhiy holatni ifodalashda aynan bo'yoqlar bilan tasvirlashiga alohida to'xtaladi. "Abdulla Qahhor bo'yoqlarga nihoyatda boy. U bo'yoqlarning kuchini ayni kuchli bir rassom singari his qiladi va o'z joyida ulardan to'g'ri foydalanadi. Ruhiy holatning bir xil ko'rinishi uchun ishlatgan bo'yog'ini zinhor – zinhor bu holatning teskarisini ko'rsatadigan ikkinchi holatga ishlatmaydi. Chunonchi "yuzning qizarishi" bilan birga "ko'zning qizarishi"ni ham beradi. Biroq "yuzning qizarishi bilan "aksar vaqt, uyalish va xijolatlik holatini ko'rsatsa, "ko'zning qizarishi" qahramonning yashirincha to'kkan ko'z yoshlari, og'ir yurak dardi yoki qattiq jahli chiqqandan darak beradi". Yozuvchi Turobjonning anor emas asal olib kelganligi uchun yuzining qizarishida andisha va xijolatni ifodalasa, xotining ko'zi qizargan holda kelishi og'ir ichki alamni ifodalaydi. Yuzda aks etgan alamni, qo'rquvni, boshqa bir rang yuzning oqarishi bilan tasvirleydi. "Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko'rib xotini qo'rqib ketdi bu qadar oqargan"³. Qahhor hikoyalaridagi kuchli hayajonni yolg'iz

³ Алимухаммедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир. Ўзбек адабиё танқиди. – Тошкент.: Турон Иқбол. 2011. 63 б.

<https://conferencea.org>

bo‘yoqlar yordami bilan emas, balki, barcha tana a‘zolarining ishtiroki, ya‘ni titrash, qaltirash harakatlari bilan ham ifodalaydi. “Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi. U tugunni uyning o‘rtasiga tashladi. Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi. Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko‘rib xotini qo‘rqib ketdi, bu qadar oqargan. Turobjon o‘tirib peshonasini ushladi. Xotini yugurib keldi va yelkasiga qo‘lini qo‘ydi.

“– Qayoqqa bordingiz – dedi, entikib.Nima qildingiz?

Turobjon javob bermadi uning vujudi titrar edi”.

Aynan hikoya oxirida keltirilgan quyidagi parcha asar kulminatsiyasi deya olamiz. Bu Abdulla Qahhorning yozuvchilik borasidagi o‘ziga xos va mos bo‘lgan mahorati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Алимухаммедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир. Ўзбек адабиё танқиди. – Тошкент.: Turon Iqbol. 2011. 51-64 б.
2. Абдулла Қаҳҳор. Анор. Танланган асарлар 2 жилд. – Тошкент.: 1987
3. Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи. – Тошкент.: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти. 2022, –122 б.
4. Ўразбаева М. Исажон Султон ва Нормурод Норқобилов романларида аёл образининг бадий талқинлари. О‘zbekiston Milliy axborot agentligi O‘zA Ilm-fan bo‘limi Elektron jurnal 2022. №10 83-90
5. Ўразбаева М. Бадий тафаккурдаги янгиланиш ва аёл образи талқинидаги ўзига хослик. О‘zbekiston Milliy axborot agentligi O‘zA Ilm-fan bo‘limi Elektron jurnal 2022. №1 192-203
6. O‘rozboyeva M. Historical foundations of the appearance of the female image. International Scientific journal Theoretical Applied Science. 2019. №12. –Б.652-656.
7. Уразбоева М. Ўзбек адабиётида аёл образининг тарихий-генетик талқини. Science and education in the modern world: challenges of the 21 st century Kazakhstan, 10-12- July. 2019. Б. 397-400.
8. Ўразбоева М. XX аср ўзбек романларида аёллар образи. БухДу илмий ахборотномаси 2020 №3. –Б. 198-203.
9. Ўразбоева М. Гунтекин ва Саломат Вафо романларида қочиш мотиви ёхуд бинар типология. ТДПУ Илмий ахборотномаси. 2020 №8. Б. 181-184.
10. Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Тошкент.: ШАРҚ НАШРИЁТ – МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ. 2018. 154 Б.